

TIL – MULOQOT VOSITASI

Chet tilini o'rganish ona tilini o'zlashtirishdek oson bo'lmasligi tabiiy. Zotan, izlagan, albatta, imkon topadi. Shaxsan men ham ko'pchilik qatori boshqa tilni o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelganman. Hali ham yodimda bir vaqtlar ingliz tilini o'rganib, ushbu fandan sertifikatga ega bo'lishim xayolimning bir chetidan ham o'tmagan edi. Chunki maktabda ingliz tilidan asosan "3" va



"4" baholarga o'qiganman.

"Bu fan men uchun emas", deb yurgan paytlarim ham bo'lgan. Ammo taqdir taqozosi bilan aynan ingliz tili asosiy fan hisoblangan ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilindim. Shu nuqtadan boshlab til o'rganishga bo'lgan munosabatim tubdan o'zgardi.

O'rganish jarayonida turli usullardan foydalandim. Xususan, bugungi kunda yoshlar orasida keng ommalashgan "Shado-

wing" (soylash) metodi va "30 daqiqa" usuli men uchun samarali bo'ldi. "Shadowing" — bu audio yoki video materialni tinglab, uni to'xtamasdan, darhol takrorlash usuli bo'lib, talaffuz va og'zaki nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Kuniga 10-15 daqiqa mashq qilish ham nutq ravonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

"30 daqiqa" usuli esa sodda va samarali yondashuvga asoslangan. Bu usul vaqtni to'g'ri taqsimlashda qiynaladiganlar uchun qulay. Mashg'ulot uch qismga bo'linadi:

— birinchi 10 daqiqada yangi mavzuga oid xorijiy so'zlar yodlanadi;

— keyingi 10 daqiqada tinglab tushunish (podkast, video yoki seriallar orqali) mashq qilinadi;

— so'nggi 10 daqiqada esa o'qish va yozish ko'nikmalari ustida ishlanadi. Eng samarali yo'l — qisqa matnni o'qib, uning mazmunini anglab, qisqacha yozma bayon qilishdir.

Agar shu tartibda muntazam shug'ullansangiz, bir oy ichida sezilarli natijaga erishish mumkin. Men ham aynan shu usullar yordamida Multilevel imtihonidan B2 darajadagi sertifikatni qo'lga kiritdim.

Shuni unutmashlik kerakki, chet tilini o'rganish oddiy dars jarayoni emas — bu sizning kelajagingiz uchun berilgan muhim imkoniyatdir. Uni qadrlab, jiddiy yondashgan inson, albatta, natijaga erishadi. Shu bois barcha talabalarni til o'rganishda yana-da faolroq bo'lishlikka chaqiraman.

Sarvinoz ADIZOVA

Tog' yonbag'rida kamgap bir donishmand yashar edi. Bir kuni uning oldiga yosh yigit kelib:

— Menga aqlli bilan, ahmoqning o'rtasidagi farqini ko'rsating, — debdi. Donishmand yigitga bir

muddat qarab turdi. Keyin esa, qo'li bilan ma'lum bir uzoqlikdagi qoyadan dumalab tushgan toshlarni ko'rsatdi.

— Bu savolingga shu toshlar bo'ladi. Ularni qoya tepasiga tashib chiq. Yigit «xo'p» deb, ishga kirishdi. Keyin yigit qo'llari qabarib, terga botib, ancha vaqt shu toshlarni balandlikka tashish bilan ovora bo'ldi. Nihoyat ishni bitirgach, kelib:

— Tashib bo'ldim, — debdi. — Lekin hech narsani tushunolmadim, toshlarni aynan nima uchun tashidim? U qanday qilib mening savolimga javob bo'la oladi?

— Mana shu ahmoq bilan aqlining o'rtasidagi farqdir, — debdi donishmand.

IBRAT

Xitoy xalq og'zaki ijodidan

“MUSTAQILLIK KUBOGI”

Institutimizda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan professor-o'qituvchilar hamda ishchi-xodimlar o'rtasida "Mustaqillik kubogi" an'anaviy sport musobaqasi bo'lib o'tdi. Musobaqa doirasida ishtirokchilar sportning mini futbol, voleybol va kurash turlari bo'yicha o'zaro kuch sinashdilar.

Murosasiz va qizg'in bahslarga boy o'tgan o'yinlarda jamoalarning yuksak tayyorgarligi, hamjihatligi va g'alabaga bo'lgan intilishi yaqqol namoyon bo'ldi. Qiziqarli kechgan barcha bellashuvlar ishtirokchilar hamda tomoshabinlarga ko'tarinki kayfiyat va quvonch ulashdi.

Dilnur QOBIL



YANGI RENESSANS

Muassis:
Samarqand davlat chet
tillar instituti

Muharrir: Sardor Baxrillo o'g'li v.v.b

Tahrir hay'ati: B.XOLIQOV, E.MUSURMONOV,
X.XAYRULLAYEV, U.XUSANOV, H.JO'RAYEV

Manzil: Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi 43-uy

Gazeta Samarqand davlat chet
tillar instituti Ilmiy kengashi
qarori asosida ta'sis etilgan.
Gazeta institut talabalari
uchun mo'ljallangan.



@renessansadmin-
hot orqali bizga
murojaat qiling

Gazeta institut
"Tahrir-
nashriyot"
bo'limida chop
etiladi.

Vatan ustuni – bilim, ta'lim va tarbiyada!

YANGI RENESSANS

IJTIMOY-TA'LIMIY, MADANIY-MA'RIFIY GAZETA

2026-yil, 10-sentabr, № 8

www.samdhti.uz

E-mail: intellektinfo@inbox

2025-yildan chiqa boshlagan

BILIM VA SALOHİYAT
– KELAJAK POYDEVORI

Institutimizda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi hamda yangi o'quv yili boshlanishi munosabati bilan birinchi bosqich talabalari uchun "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yarataylik!" shiori ostida "Mustaqillik darsi" bo'lib o'tdi.



Mashg'ulotni institut rektori B.Xoliqov olib bordi. Dars davomida Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Mustaqilligimizning 35 yilligiga bag'ishlangan nutqining mazmun-mohiyati tushuntirilib, mustaqillik har bir insonning o'z salohiyati-

ni namoyon etish imkoniyati ekani ta'kidlandi. Shuningdek, mamlakatimiz taraqqiyyotining kelgusi o'n yilligidagi ustuvor vazifalar, raqamli texnologiyalar hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Rektor talabalarga milliy birlik, vorisiylik va o'z sohasi bo'yicha professional mutaxassis bo'lib yetishish Vatan oldidagi eng katta mas'uliyat ekanini ta'kidladi. Interaktiv usulda va samimiy savol-javoblar ruhida o'tgan darsda yoshlar o'zlarini qiziqitrgan savollarga javob olib, kelajak rejalari bilan o'rtoqlashdilar.

Mashhura SHIRINBOYEVA

KELAJAK SARI

Birinchi bosqich talabalari tantanali kutib olindi

Oliygo'himizda yangi o'quv yili birinchi bosqich talabalari, ularning ota-onalari hamda professor-o'qituvchilar ishtirokida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbir bilan boshlandi.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi bilan tantanali ravishda ochildi. So'zga chiqqan institut rektori Bahodir Xoliqov talabalik sharafiga muyassar bo'lgan yoshlarni, ularning ota-onalari hamda ustozlarini yangi o'quv yili bilan samimiy muborakbod etdi. Shuningdek, mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohotlar va yoshlarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor alohida e'tirof etildi.

Tadbir doirasida oliygo'hga eng yuqori ball bilan o'qishga qabul qilingan iqtidorli talabalarga institut jamoasining esdalik sovg'alari topshirildi.

Farzona MAMATOVA



Kitoblarning kelib chiqishi yozuvning yaratilishi va shakllanish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, qadimgi davrlarga borib taqaladi. Dastlab odamlar ma'lumotlarni daraxtlarga, g'or devorlariga chizish yoki arqonga tugunlar bog'lash orqali saqlaganlar. Keyinchalik loydan tayyorlangan taxtachalarga yozuvlar qo'yib, ularni o'choqda pishirib mustahkamlagan.

KITOBLAR
QANDAY PAYDO
BO'LGAN?

Qadimgi Misr, Rim, Yunoniston va O'rta Osiyoda tosh, palma barglari, sopol va papirusga yozilgan yozuvlar asosida kitob shakllangan. Papirusdan tayyorlangan kitoblar uzun, ingichka tayoqlarga o'ralgan va charm yoki yog'och g'iloflarda saqlangan. Miloddan avvalgi 4–3-ming yilliklarda papirus asosidagi o'rama kitoblar paydo bo'lgan. Qog'ozning kashf qilinishi (650-yillarda Samarqandda) kitob tarixida yangi davrni boshlab berdi. XIII asrdan boshlab Yevropada qog'oz asosiy yozuv materiali sifatida ishlatila boshlandi.

Kitob moddiy va ma'naviy ozuqamiz hisoblanadi. Insoniyatni ezgu va yaxshilikka yetaklovchi manba bu kitobdir. Oxirgi 5 yillikda kitoblarga bo'lgan ehtiyoj kamayib bormoqda. Hozirgi yosh avlod kitoblar o'rniga elektron kitoblardan foydalanishmoqda. Bu esa o'z navbatida yoshlar o'rtasida saviyasizlik, tor fikrlash kabi muammolarni yuzaga keltirib chiqaradi.

Xumora tayyorladi

SHAHAR CHIQINDI QUTISI EMAS

Shahrimiz ko'chalari bo'ylab yurar ekanman, bir ayanchli manzara dilimni xira qilmoqda. Har kuni qayta-qayta guvoh bo'laverganimdan bu holatga munosabat bildirishni o'zimga lozim deb topdim.

Erta bilan yaxshi kayfiyatda oliygo-himiz tomon yo'l olar ekanman, yo'l chetida turgan «qardron» chiqindi uyumlari dilimni xira qilmasdan qolmaydi. Holatni takror va takror ko'raverganimdan bu narsa menga begona bo'lmay qolgan. Har safar ko'rganimda xayolimda turli fikrlar aylanadi: "Nega buni no'rin joyga tashlab ketishdi? Chiqindini maxsus chiqindi idishlariga tashlasa, yaxshi bo'lardi". "Erinichoqlik oqibatimi bu yoki mas'uliyatsizlikmi?" kabi savollar qalbinga tinchlik bermaydi.

Doimgidek, tushlikdan so'ng, oliygohdan qaytishimda manzara o'zgacha tus oladi — obodonlashtirish tashkiloti xodimlari o'z ishini bajarib, tozalikni ta'minlab qo'yishadi. "Xo'sh, tushlikdan keyin bo'lsa ham chiqindilar olib ketilsa, ko'chalar tozalansa, nega buncha o'rtanasan?", deyishingiz mumkin. Tushlikkacha bo'lgan manzarani nima deb ta'riflashga hayronman. Insoniylikning yuztuban ketganimi bu?

Noxush manzaraga ko'p bor guvoh bo'lganimdan nafratga o'xshagan tuyg'u zohirimni egallab olayotganini his etaman. Tasavvur qiling, ko'chada ketayotgan kishi qo'lidagi bo'sh idishni maysalar ustiga ulotqirib ketsa, boshqasi uyidan chiqqan chiqindilarni "baribir olib ketishadi-ku", qabilida yo'l chetiga tashlasa... Har qadamda bitta plastik idish yoki yeb bo'lingan shirinlik idishi yotsa, tabiat aziyat chekmaydimi? Holat biz uchun fojia emasmi? Axir qanday qilib inson o'zi yashaydigan zaminga bunday munosabatda bo'lishi mumkin? Biz tabiatga shunday munosabatda bo'lib, yana undan yaxshilik kutishimiz

nohaqlik emasmi?

Munosabat

Yurtimiz, xalqimiz haqida gap ketganda buyuk ajdodlarimiz, olim-u ulamolarimiz, qadimiy shaharlarimizdan gap boshlaymiz. Sayyohlarda ajdodlarimizga bo'lgan-dek hurmat va taassurot uyg'ota o'layap-



mizmi? Samarqand — yer yuzining sayqali, deya e'tirof etiladi. Vazifamiz uning nomini saqlab qolishda sobidqadam bo'lib, ekologik madaniyatga rioya etishimiz zarur deb o'ylayman. Shaharning har burchagi chiqindi uyumlari bilan to'lib yotsa, uni ko'rgan qaysi sayyoh qayta qadam ranjida qilishga jazm etadi? "Samarqandga bordim, u yer juda kir, iflos ekan", deyishmaydimi? Shuning uchun bu zaminni toza, ozoda saqlash yuksak vazifamiz bo'lmo'gi kerak. Zero, shahar ko'rkiga birgina noto'g'ri harakat bilan putur yetkazmaylik!

Ekologik madaniyatni kimdir bizga o'rgatishi shart emas. Biz yoshlar bu narsani bir-birimizga uqtirsak, noxush holat guvohi bo'lib ham jimgina yo'limizda davom etmasdan tanbeh berib uyaltirsak maqsadga muvofiq bo'lardi. Zotan, shu Vatan, shu zamin bizniki. Uni avaylab, asrab kelajak avlodga bor go'zalligi bilan yetkazish, kerak bo'lsa, ko'rkiga yana-da ko'rk bag'ishlash bugun bizning qo'limizda. Keling, media orqali buni targ'ibot qilaylik, to'g'ri xulosa qilishimiz uchun xizmat qilsa ajabmas. Qo'limizdan keladigan yagona va eng to'g'ri yo'l ham shu!

Sardor BAXRILLO o'g'li

QISQA SATRLARDA



XORIJLIK TALABALAR MUNOSIB KUTIB OLINDI

Samarqand davlat chet tillar institutida yangi o'quv yilida o'qishga qabul qilingan xorijlik talabalar uchun tantanali kutib olish tadbiri tashkil etildi. Unda institut rektori Bahodir Xoliqov so'zga chiqib, xorijlik yoshlarni Samarqand davlat chet tillar instituti talabalari safiga qabul qilingani bilan muborakbod etdi. Rektor o'z so'zida Samarqand qadimdan turli xalqlar, tillar va madaniyatlar tutashgan yirik ilm-fan hamda ma'rifat maskani sifatida ilm ahlini o'ziga chorlab kelganini ta'kidladi. Shuningdek, u xorijlik talabalar endilikda institutning ahil va katta xalqaro akademik oilasining ajralmas bir qismiga aylanishganini alohida qayd etdi.

Muloqot davomida talabalarga sifatli ta'lim olish, ilmiy va ijtimoiy loyihalarda faol qatnashish, xalqaro akademik mobillik dasturlaridan unumli foydalanish hamda O'zbekistonning boy tarixi va madaniyati bilan yaqindan tanishish bo'yicha yaratilayotgan keng imkoniyatlar haqida atroflicha ma'lumot berildi.

Ahamiyatlisi, joriy o'quv yilida institut talabalari safidan Xitoy, Tojikiston, Rossiya, Turkiya, Koreya Respublikasi, Eron, AQSH, Misr, Filippin, Bangladesh, Pokiston va Hindiston kabi davlatlardan kelgan iqtidorli yoshlar ham o'rin olishdi.

A.ANVAROV

EZGU DUOLAR VA SAMIMIY MULOQOT

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi hamda yangi o'quv yili boshlanishi munosabati bilan Samarqand davlat chet tillar institutida ma'naviy-ma'rifiy va xayriya tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbir avvalida Qur'on tilovat qilinib, Yaratgandan yurtimizga tinchlik, osudalik hamda yangi o'quv yilida talabalarga ulkan zafarlar so'rab duolar qilindi. Shundan so'ng TTJda istiqomat qilayotgan talabalarga institut mehnat jamoasi tomonidan tayyorlangan ehson oshi ulashildi.

Tadbir doirasida institut rektori B.Xoliqov Talabalar turar joyida bo'lib, yoshlar uchun yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Samimiy muloqot chog'ida talabalar ustozlar bilan o'z orzu-istaklari va kelajak rejalari haqida suhbatlashdilar. Taassurotlarga boy kechgan mazkur tadbir talabalarga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Gulsanam TO'RAQULOVA

Bugun ertalab men Eski Drezden ko'chalari bo'ylab ketayotgan edim. Ko'nglimda noxushlik va noqulaylik bor edi: men uni — mashhur Sikstin madonasini ko'rgani ketayotgandim. Unga hamma qoyil qoladi, unga qoyil qolmaslik go'yo uyatdek. Shunga qaramay, men ilgari ko'rgan suratlarining sanog'i yo'q edi va ular meni butunlay hayratda qoldirib, bu yerda nimaga qoyil qolish mumkinligini tushunolmay qolardim. Menga faqat pastdagi ikkita farishtacha yoqar edi.

Va mana men bilardim, men rasm qarshisida hurmat bilan turaman, unga tinmay tikilaman va o'zimga mos kayfiyatni uyg'otishga harakat qilaman. Ammo ichimdagi sho'x bir "jincha" kulib, shunday derdi: "Men hech narsadan uyalmayman — yoq- masa, bo'ldi, tamom!.."

Men Svinger saroyiga kirdim. Katta zal — yuqoridan pastgacha rasmlar bilan to'ldirilgan. Ko'zlar chalg'ib ketadi, nimaga qarashni bilmay qolasan va qo'llanmadan "munosib" deb belgilangan yulduzchalarni izlab najot topgandek bo'lasan. Mana, burchakdagi shimoliy kichik xona eshigi. Ko'z o'ngimda tanish shakllar, kiyimlarning yorqin ranglari lip etib o'tdi... Deyarli dushmanona, yoqimsiz bir tuyg'u bilan xonaga kirdim.

Katta, poldan boshlab baland ko'tarilgan oltin ramada, ikonostasga o'xshash ramada devor bo'yida yolg'iz rasm turardi. Chap tomondan, yarim qizil pardali oynadan yorug'lik tushardi. Divan ustida va devor bo'yida odamlar o'tirib yoki turib, rasmga ma'nosiz, ammo hurmat bilan tikilib turishardi. "Baxtsiz hamrohlar!" — deb o'yladim ichimda kulib. Lekin darhol kulgini bosib, jiddiy va kuzatuvchan qiyofada devor yonida to'xtadim.

Birdan — sezilmasdan, nozik tarzda — atrofdagi hamma narsa go'yo yo'qolib ketdi. Odamlar ham, devorlar ham g'oyib bo'ldi. Bezatilgan ikonostas ham yo'qoldi. Rasmda o'zini keraksiz his qilgandek, uyalgandek bo'lib qolgan qari Sikst va noz-karashmali Varvara tobora tuman ichida yo'qolib borardi.

Shu tuman ichida esa ikki yuz aniq ajralib turardi — ona va bola. Ularning hayoti qarshisida atrofdagi hamma narsa oqarib, o'likdek tuyulardi... U lablari-

ni qisib, katta, juda katta va qo'rqinchli qora ko'zlari bilan boshlar ustidan uzoqqa tikilib qarardi. Bu ko'zlar uzoqni ham ko'rardi: tartibni himoya qilayotgan fari-siylarni, xiyonat qilgan do'stni, qo'llarini yuvayotgan amaldor-sudyani va "Uni xochga mixla!" deb baqirayotgan xalqni.

Ha, u shu chuqur nigohi bilan ko'rardi — qanday qilib u tikanli toj ostida turishini,



qamchi zarbalaridan tilka-pora bo'lib, yuzida haqorat va hayvoniy azob izlari bilan turishini, xuddi bir necha zal narida, Gvido Reni chizgan kichik rasmda tasvirlangandek...

Va uning yonida — u, jiddiy va o'ychan, dumaloq bokira yuzli, peshonasini oldindan sezilgan xiralik qoplagan. Men qaradim, qaradim — va menga shunday tuyuldi: u tirik, xiralik esa uning yosh, yoqimli yuziga goh yaqinlashadi, goh chekinadi...

Aqlimda pastda yozilgan yozuvning boshi ma'nosiz takrorlanardi:

"Fece Raffaello a'monaci neri..."

[*]— "Rafael qora monaxlar uchun yaratgan" (italyancha).

O'lik tuman ichidan ayol ovozi nemischa so'radi:

— Pastda nima u, tuxummi?

Erkak ovozi javob berdi:

— Bu papalik tiarasi.

Xiralik esa yana kelib, yana uning pok bokira peshonasini qoplay boshlardi. Va u butun borlig'i bilan hayotga to'la, hayotni va yerni sevishga to'la edi... Shunga qaramay, u o'g'lini bag'riga bosmadi, uni kelajakdan asrashga urinmadi. Aksincha, uni ko'kragi bilan kelajak sari yuzlantirdi.

Uning jiddiy, diqqatga jamlangan chehrasi go'yo shunday derdi: "Og'ir

Hikoya

zamonlar keldi, bizga quvonch ko'rish nasib etmaydi. Ammo buyuk ish zarur, va u bu ishini o'z zimmasiga olayotgani — uning uchun baxt!"

Uning chehrasi o'g'lining jasoratiga bo'lgan ehtirom va ulug'vor faxr bilan nur sochardi. Ammo bu jasorat amalga oshgach... amalga oshgach, uning yuragi onalik azobidan yorilib ketadi, qon yig'laydi va u buni bilardi...

Kechqurun men Bryul terrasasida o'tirardim. Qalbimda xuddi hayotimda juda muhim va o'zgacha bir voqea yuz bergandek tuyg'u bor edi. Havoda aprel-ning salqin nafasi sezilardi, Elba daryosining narigi tomonida qirg'oq bahoriy yam-yashil maysalar bilan qoplangan edi. G'arb tomonni to'q sariq xiralik qoplagan, shahar esa moviy tuman ichiga o'ralib borardi. Elba ustidagi

ko'prikdan, go'yo havoda uchayotgandek balandda, bir poyezd o'tib ketdi u tong shafag'ining to'q sariq fonida qora siluet bo'lib ajralib turardi.

Men o'tirardim va birdan qalbimni yorug', ruhni ko'targuvchi quvonch qamrab oldi — insoniyatdan faxrlanish va quvonch: u shunday onalikni yaratib, uni yuksak darajaga ko'tara olgan edi. Mayli, o'lik tuman ichida faqat sust yig'i tovushlari va malomat so'zlari eshitilsin — U bor, u o'sha yerda, Svinger saroyining sehrli to'rtburchagida mavjud.

U bor ekan — bu dunyoda yashash quvonchli ham, sharafli hamdir. Men e'tiqodsiz bo'lsam ham, unga ibodat qilgim kelardi.

Qorong'u tusha boshladi. Men maydon orqali ketayotgan edim. Osmonda go'yo qurum bosgandek qora bo'lib ko'ringan Avliyo Sofiya cherkovining ikki minorasi ko'zga tashlanardi. Mana u — jim-jit Svinger. Derazalari qorong'u, ichkarida esa sukunat va bo'shliq hukm surardi.

Bu menga g'alati tuyuldi: nahotki o'sha xonada ham u sezilmasa, nahotki uning chehrasi porlamasa?..

(Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi Mashhura NISHANOVA tarjimai)